

## MULOQOT JARAYONINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8338669>

**M.F.Dadaxodjayeva**

*p. f. n.*

*Oriental universiteti boshlang'ich ta'lim va sport kafedrasi mudiri*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada shaxslararo munosabat haqida, Shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi bugungi kunda o'ta muhimligi haqida, Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlar uzatishini, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qilishi haqida so`z boradi.*

### **Kalit so`zlar**

*shaxs, inson, muloqot, munosabat, strategiya, harakat, mohiyat, faoliyat, psixologiya, almashinuv.*

Shaxslararo munosabatlar jarayonida shaxsning ishtiroki va bu jarayonda shaxslar o'rtasida kechadigan munosabatlarni o'rganish ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bunday munosabatlar sirasiga shaxs xulq-atvoriga tegishli bo'lgan altruizm, egoizm, agressiya, tolerantlik, stigma, diskriminatsiya tushunchalarini kiritish mumkin. Bugungi kunda bu tushunchalarning mohiyatini ochishga harakat qilish ijtimoiy psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining barchasini qiziqtirayotganligi bejiz emas, albatta. Chunki bu tushunchalar aynan shaxs va jamiyat munosabatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxslararo munosabatlarda ba'zan kishilar bir-birlarining egoistik xulqidan shikoyat qilishi kuzatiladi. Bunday xulq qanday kechishini tahlil qilib ko'ramiz. Egoizm shaxsning ijtimoiy muhitiga salbiy ta'sir qiladi. Hech qaysi shaxs o'z atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni hissiyotsiz baholamaydi. Yaqin kishilar bilan yoki oilaviy munosabatlarda muammolar yuzaga kelganida, kishilar mas'uliyatni ko'proq o'z juftiga yuklaydi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ajralish uchun kelganlarning ko'pchiligi oilaning ajrim ostonasiga kelib qolganligi uchun o'z juftini yoki yana kimlarnidir aybdor deb hisoblaydilar. Aksincha, oilaviy munosabatlardagi ijobiy jihatlar, ishdagi yoki boshqa sohalaridagi muvafaqqiyatlarning sababchisini ko'rsatish lozim bo'lsa, albatta o'z ishtirokchidan so'z ochishadi va bunday xususiyat ko'pchilikka xosdir. Ma'lum bir sohada bir xil

muvaffaqiyatga yoki natijaga erishish uchun raqobatlashayotgan olimlar o'zlarining fanga qo'shgan hissalarini haqida gapirayotganida kamdan kam kamtar bo'lishi xorij psixologiyasining yetuk olimlaridan biri – E.Ross tomonidan tasdiqlangan.

Shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi bugungi kunda o'ta muhimdir. Zero, har bir shaxsning jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga munosabati, ularni idrok qilishi va anglash darajasi, o'z-o'ziga nisbatan munosabatining tabiati, xulqidagi ijtimoiy yo'nalishlar katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa bolaning voyaga yetishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirib borishi, uning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun sharoit yaratish, uning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning eng ma'qul usullarini joriy etishdir. Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlar uzatishini, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qo-biliyati bilan bevosita bog'liq. Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T. Shibutaning «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi», – deb yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot muloqotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o'rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlarini mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan avlodga uzatadilar.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his- kechinmalar, tashvish-u quvonchlar almashuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgani sari taraflar o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va

uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi-ki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta» jumladan ham ayon bo'ladigan bo'lib qoladi. Ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi reaksiyalari, bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Masalan: oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi.

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlarning bu munosabatlardan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa «jozibasi», betakrorligi shundaki o'zaro bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi.

Ana endi shaxslararo munosabat haqida fikr yuritsak. Shaxslararo munosabat o'zi nima? Shaxslararo munosabatlar - bu bizga yaqin odamlar bilan munosabatlar; bu ota-onalar va bolalar, er va xotin, aka-uka va opa-singil o'rtasidagi munosabatlardir. Albatta, yaqin shaxsiy munosabatlar faqat oilaviy davralar bilan chegaralanmaydi, bunday munosabatlar ko'pincha turli sharoitlarda birga yashaydigan odamlarni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlardagi umumiy omil turli xil mehr-muhabbat, sevgi va sadoqat tuyg'ulari, shuningdek, ushbu munosabatlarni saqlab qolish istagi. Agar xo'jayiningiz hayotingizni qiyinlashtirsa, u bilan xayrlashishingiz mumkin; agar do'kondagi sotuvchi sizga tegishli e'tibor bermagan bo'lsa, siz u yerga boshqa bormaysiz; agar xodim sizga bevafo bo'lsa, iloji bo'lsa, u bilan aloqa qilmaslikni afzal ko'rasiz va hokazo. Ammo, agar biz va yaqinlarimiz o'rtasida muammolar yuzaga kelsa, bu biz uchun juda muhim bo'ladi. Sartarosh bilan yomon munosabatda bo'lganligi sababli psixologga qancha odam keladi? Boshqa tomondan, biz ko'plab odamlarning maishiy va oilaviy, jamoaviy muammolarda maslahat va yordam so'rab murojaat qilayotganini ko'ramiz.

Bir necha asrlar davomida shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muammolar nafaqat o'z dolzarbligini yo'qotibgina qolmay, balki ko'plab ijtimoiy va gumanitar fanlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxslararo munosabatlar va unda o'zaro tushunishga erishish imkoniyatlarini tahlil qilib, jamiyat, oila va shaxs rivojlanishidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni tushuntirish mumkin. Inson hayotining ajralmas atributi bo'lgan shaxslararo munosabatlar hayotning barcha jabhalarida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, shaxslararo munosabatlarning sifati muloqotga, erishilgan tushunish darajasiga bog'liq.

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi. Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z hiskechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksidir.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tkazib



davra qurib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

Shaxslararo muloqot jarayoni juda murakkabdir. B.F.Pariginning yozishicha, "muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- individlarning o'zaro ta'sir jarayoni
- Individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni
- Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni
- bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni.
- bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati
- shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni"

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud. T. Shibutani "Ijtimoiy psixologiya» kitobida (darsligida) "Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi", deb tugri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan, suxbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan mulokot - mulokotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o'rtasidagi mulokot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlar mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avlodlar-avlodga uzatadilar.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Каримов М. С. ПСИХОЛОГИЯДА ШАХSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI //Proceedings of International Educators Conference. - 2023. - T. 2. - №. 8. - C. 57-61.

2. Dilova N. G. Zamonaviy ta'limda shaxslararo munosabatning ahamiyati //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 151-156.

3. Shuhratovna S. M. MAKTABDA PSIXOLOGIK XIZMAT //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 734-738.